

## 7-12 YOSHLI BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING AHAMIYATI

**Samadova Gulchehra Umed qizi**

*Zarmed universiteti Pedagogika va psixologiya  
sirtqi ta'lim yo'nalishi 5- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada bolaning psixik rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar psixologik hamda pedagogik yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Maqolada erta bolalik davridan o'smirlik yoshigacha bo'lgan rivojlanish bosqichlarining o'ziga xos psixik xususiyatlari yoritilib, oilaviy muhit, tarbiya usullari va ijtimoiy omillarning bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi o'rni ilmiy asosda ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *psixik rivojlanish, yosh davrlari psixologiyasi, oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit, ota-onalik roli, o'yin faoliyati, shaxs shakllanishi*

### **Kirish**

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishi inson kapitali sifatiga, xususan, yosh avlodning psixik va shaxsiy kamolotiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, bolaning psixik rivojlanishini ilmiy asosda o'rganish pedagogika va psixologiya fanlarining muhim va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bolalik va o'smirlik davrida psixik jarayonlar, shaxsiy xususiyatlar hamda ijtimoiy xulq-atvor shakllanishining qonuniyatlarini tahlil qilish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XXI asrda ta'lim-tarbiya tizimining jadal rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda kechmoqda. Zamonaviy konstruktiv ta'lim paradigmasiga ko'ra, har bir bola sifatli ta'lim olish huquqiga ega bo'lib, umumiy o'rta ta'lim majburiy bosqich sifatida e'tirof etiladi. Bolaning psixik rivojlanishi biologik omillar bilan bir qatorda, ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, muloqot va ta'lim jarayoni ta'sirida kechadigan murakkab va uzluksiz jarayondir. Umumiy va yosh davrlari psixologiyasida bolaning psixik rivojlanishida ijtimoiy omillar yetakchi ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi. Bola shaxs sifatida shakllanish jarayonida oila, ta'lim muassasasi va tengdoshlar bilan muloqot muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, oilaviy muhit bolaning emotsional barqarorligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Psixik rivojlanish -bu bolaning tug'ilganidan boshlab voyaga yetguniga qadar psixik jarayonlari, shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy xulq-atvorining miqdoriy va sifat jihatdan o'zgarib borish jarayonidir. Ushbu jarayon uzluksiz bo'lib, yosh davrlariga xos qonuniyatlar asosida kechadi.

Olim S.L Rubinshteynning “Umumiy psixologiya” fanida ta'kidlanishicha, bolaning rivojlanishida ijtimoiy omillar yetakchi o'rin tutadi. Xususan, shaxs shakllanishida ijtimoiy muhit, muloqot va tarbiya jarayonining ahamiyati ko'plab ilmiy tadqiqotlarda asoslab

berilgan. Bolaning yosh davrlariga xos psixik rivojlanish bosqichlari muayyan qonuniyatlar asosida kechib, har bir davr o‘ziga xos ehtiyoj va rivojlanish vazifalariga ega bo‘ladi.

L.S. Vigotskiy ta’limotiga ko‘ra, bolaning psixik rivojlanishida ijtimoiy muhit va ta’lim yetakchi rol o‘ynaydi. Olim tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasi bolaning psixik imkoniyatlari kattalar yordamida kengayib borishini ilmiy asoslaydi. A.N. Leontev va D.B. Elkoninlar esa faoliyat nazariyasi orqali bolaning psixik rivojlanishi yetakchi faoliyat turlari bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydilar. Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, inson rivoji sakkiz bosqichdan iborat bo‘lib, ulardan to‘rtinchisi 7–12 yosh oralig‘ini qamrab oladi va “Mehnatkashlikka qarshi pastlik tuyg‘usi” deb nomlanadi. Ushbu bosqichda bola o‘zining intellektual, jismoniy va ijtimoiy qobiliyatlarini faol ravishda sinab ko‘ra boshlaydi. Bu jarayon, asosan, maktab faoliyati, sport mashg‘ulotlari va kundalik uy vazifalari orqali namoyon bo‘ladi.

Mazkur davrda ota-onaning qo‘llab-quvvatlashi, bolaning yutuqlarini e’tirof etishi hamda xatolarga nisbatan tushunish va sabr bilan munosabatda bo‘lishi bolada o‘ziga ishonch, kompetentlik hissi va “men qila olaman” degan ichki ishonchni shakllantiradi. Natijada, bolada ijobiy o‘z-o‘zini baholash) va mas’uliyat hissi rivojlanadi.

Aksincha, doimiy tanqid, boshqa bolalar bilan qiyoslash yoki ota-onaning befarqligi bolaning o‘zini past baholashiga, o‘z imkoniyatlariga shubha bilan qarashiga va faoliyatga bo‘lgan motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu holatlar pastlik tuyg‘usi ning shakllanishiga zamin yaratib, keyinchalik depressiv holatlar va ijtimoiy moslashuv muammolariga sabab bo‘lishi ehtimolini oshiradi.

Erikson ushbu rivojlanish bosqichida oilani bolaning asosiy ijtimoiy muhiti sifatida e’tirof etadi. Uning ta’kidlashicha, oiladagi munosabatlar, ayniqsa ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi, bolaning o‘zini qanchalik qadrlil va qobiliyatli deb his qilishini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

7-12 yosh (o‘rta bolalik davri,) bolaning psixik rivojlanishida oilaviy munosabatlar juda muhim o‘rin tutadi. Bu yoshda bola maktabga borib, do‘stlar doirasi kengayadi, lekin oila hali ham asosiy hissiy tayanch, o‘z-o‘zini baholash, emotsional regulyatsiya va ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanishi markazi bo‘lib qoladi. Natijada bolaning asosiy ijtimoiylashuv muhiti oiladan maktab ta’lim tizimiga ko‘chib, ta’lim muassasasi uning yetakchi faoliyat maydoniga aylanmoqda. Maktab yoshidagi bolalarning ruhiy rivojlanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u bolaning individual psixik holati, oiladagi tarbiya uslubi hamda ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Oilada ota-onaning farzand tarbiyasiga ongli va mas’uliyatli yondashuvi, yuzaga keladigan psixologik va ijtimoiy muammolarni o‘z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish bolaning psixik rivojlanishida salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Chunki bola dastlabki ijtimoiy tajribani oilada egallaydi va mazkur tajriba uning shaxs sifatida shakllanishi, ruhiy barqarorligi hamda kelajakdagi ijtimoiy yo‘nalishlarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Psixologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, 7–12 yosh davri bolaning bilish jarayonlari -diqqat, xotira, tafakkur va nutqning jadal rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda bolalarda bilim olishga bo‘lgan ehtiyoj kuchayib, mustaqil fikrlash, refleksiya hamda o‘z xulq-atvorini boshqarish ko‘nikmalari shakllana boshlaydi. Biroq ayrim oilalarda tarbiyaviy muhitning yetarli darajada tashkil

etilmagani, pedagogik va psixologik savodxonlikning pastligi natijasida bolalarda nafaqat intellektual, balki axloqiy-irodaviy rivojlanishda ham orqada qolish holatlari kuzatiladi. Bu esa o‘z navbatida bolaning o‘quv faoliyatiga, ijtimoiy moslashuviga va shaxslararo munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bois maktab yoshidagi bolalarning ruhiy jarayonlarini samarali shakllantirishda ta’lim muassasasi va oilaning o‘zaro hamkorligi muhim pedagogik-psixologik ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi va ota-onalarning uzviy hamkorligi, to‘g‘ri pedagogik yondashuv, tizimli psixologik qo‘llab-quvvatlash hamda qulay ta’lim-tarbiya muhitini yaratish orqali bolalarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik, emosional barqarorlik va ijobiy shaxsiy sifatlar rivojlanadi. Bolaning psixik rivojlanishini ilmiy asosda o‘rganish pedagogika va psixologiya fanlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘smirlik yoshiga qadar bo‘lgan davrda psixik jarayonlar va shaxsiy xususiyatlarning shakllanish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammo nafaqat mutaxassislar, balki ota-onalar uchun ham dolzarb bo‘lib, chunki bolaning psixik rivojlanishi kattalar va tengdoshlari bilan kechadigan ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonida ro‘y beradi.

Oila insonning eng muhim ijtimoiylashuv muhiti bo‘lib, bolaning shaxs sifatida kamol topishi, xulq-atvori va psixik rivojlanishi, avvalo, oilaviy tarbiya bilan belgilanadi. Zamonaviy jamiyatda ayrim ota-onalarning farzandlariga yetarli vaqt ajratmasligi natijasida bolalarda emotsional muammolar, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari va xulq-atvor buzilishlari yuzaga kelmoqda. Ota-ona mehr-muhabbati, e’tibor va qo‘llab-quvvatlash bolaning asosiy psixologik ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Qo‘llab-quvvatlovchi oilaviy muhitda tarbiyalangan bolalar o‘ziga ishongan, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanadi. Oilaviy tarbiya jarayonida muvozanatli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Haddan tashqari qattiqqo‘llik hukmron bo‘lgan oilalarda bola tortinchoq, tashabbussiz va o‘z fikrini erkin ifodalay olmaydigan shaxs sifatida shakllanishi mumkin. Aksincha, nazorat va talabning yo‘qligi mas’uliyatsizlik va ijtimoiy me’yorlarga befarqlikni yuzaga keltiradi. Oila inson shaxsining shakllanishida eng muhim ijtimoiylashuv instituti hisoblanadi. Bolaning jismoniy, ruhiy va ma’naviy kamoloti, xulq-atvori hamda ijtimoiy moslashuvi, avvalo, oiladagi tarbiya muhiti bilan belgilanadi. Aynan oilada bola dastlabki axloqiy me’yorlar, qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarni o‘zlashtiradi. Shu sababli ota-onaning tarbiyaviy mas’uliyati bolaning kelajakdagi shaxs sifatida rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xususan, oilalarda erkinlik va qattiqqo‘llik muvozanati muhim masala hisoblanadi. Haddan tashqari qattiqqo‘llik hukmron bo‘lgan muhitda ulg‘aygan bolalar o‘z fikrini erkin bayon eta olmaydigan, tortinchoq va passiv shaxs sifatida shakllanishi mumkin. Aksincha, cheksiz va nazoratsiz erkinlik berilgan bolalarda mas’uliyatsizlik, intizomsizlik va ijtimoiy me’yorlarga befarqlik kuzatiladi. Shu bois tarbiya jarayonida muvozanatli, demokratik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Ota-onaning bolaga nisbatan e’tiborli bo‘lishi, uning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olishi, rag‘batlantirishi bolaning ichki dunyosini boyitadi hamda ijobiy psixik rivojlanishiga xizmat qiladi. Aksincha, nizoli, zo‘ravonlik va doimiy bahs-munozaralar hukm surgan oilalarda bola o‘zini xavfsiz his etmaydi. Bunday muhitda voyaga yetgan bolalarda xavotirlik, emotsional beqarorlik va

tajovuzkorlik kabi salbiy sifatlar shakllanishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Iliq munosabatlarga, o‘zaro hurmat va tushunishga asoslangan oilalarda esa bolalar samimiy, muloqotga ochiq va ruhiy jihatdan barqaror bo‘lib ulg‘ayadi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, bolaning psixik rivojlanishi ko‘p omilli va murakkab jarayon bo‘lib, unda oilaviy muhit, tarbiya usullari va ijtimoiy omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bolalik va o‘smirlik davrida psixik jarayonlarning to‘g‘ri shakllanishi kelgusida shaxsning ijtimoiy moslashuvi, o‘quv faoliyati va hayotiy muvaffaqiyatlari uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning hamkorligi bolaning barkamol shaxs sifatida kamol topishini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vygotskiy L.S. Psixologiya rivojlanishi asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1996.
2. Elkonin D.B. Bolalar psixologiyasi. – Moskva: Akademiya, 2001.
3. Leontev A.N. Faoliyat, ong va shaxs. – Moskva: Politizdat, 2005.
4. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Sankt-Peterburg, 2004.
5. G‘oziev E.G‘. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
6. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2015.
7. Abdurahmonova, Z. G. (2022). Oilada tarbiya asoslari. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(10). <https://sjifactor.com>
8. Tursunbayeva, G. A. (2025). Farzand tarbiyasida oilaviy muhitning psixologik ta‘siri. Science and Education ilmiy jurnali, 6(11). [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz)
9. Xusanbayeva Z. M. (2024) Oilada otaning farzandlar psixik taraqqiyotiga ta‘sirining psixologik xususiyatlari. Образование и инновационные исследования 2024 год № 4 <https://doi.org/10.53885/edinres>.